



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 1-aprel

152-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-martdagi PQ–100-son qarori ijrosi haqida”gi 153-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-martdagi PQ–100-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 153-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 153-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil 11-martdagi PQ–100-son qarori bilan:

Asosiy yo‘nalishlar va maqsadlar:

Uy-joy va bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan barqaror ta’minlash hamda binolarning energiya samaradorligini oshirishning kelgusi 5 yildagi asosiy o‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

(a) sohada yagona davlat siyosatini yuritish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida strategik takliflarni ishlab chiqish, issiqlik ta’minoti korxonalari faoliyatini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi tashkilot tashkil etish hamda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish:

markazlashgan issiqlik tizimlaridagi eskirgan 103 ta qozonxona va 1,6 ming kilometr issiqlik tarmog‘ini, shu jumladan, 2025-2026 yillarda 18 ta qozonxona va 258 kilometr issiqlik tarmog‘ini yangilash;

davlat -xususiy sheriklik asosida 9 ta (shundan 2 ta loyiha 2025-2026 yillarda boshlanadi), xalqaro moliya institutlari ishtirokida 13 ta shahar va tumanda modernizatsiya loyihalarini amalga oshirish (shundan 5 ta shahar va tumanda 2025-2026 yillarda boshlanadi);

markazlashgan issiqlik ta’minoti qamrovini 37 foizdan 58 foizgacha yetkazish, tizimdagi yo‘qotishlarni 38 foizdan 20 foizgacha qisqartirish;

ko‘p kvartirali uy-joylar va ijtimoiy soha muassasalariga 8 681 ta individual issiqlik punktini o‘rnatish (2025-yilda 480 ta), markazlashgan issiqlik ta’minotini yopiq tizimga o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

(b) markazlashgan issiqlik ta’minotiga ulanmagan to‘rt va undan yuqori qavatli ko‘p kvartirali uy-joylarning isitish tizimida lokal qozonxonalar qurish va boshqa muqobil texnologiyalarni joriy etish hisobiga bir xonadonning gazga bo‘lgan talabini kamida 20 foizga kamaytirish;

(v) yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joylar, ijtimoiy soha hamda davlat muassasalari, sanoat va xususiy sektor bino-inshootlarining energiya samaradorligini oshirish maqsadida tajriba-sinov loyihalarini boshlash;

(g) ijtimoiy soha, sanoat va xususiy sektorlar bino-inshootlarini yangidan qurish hamda rekonstruksiya qilishni loyihalashtirish bo'yicha texnik shartlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va muqobil issiqlik tizimlari uskunalarini o'rnatish talabini kiritish;

(d) tabiiy gaz iste'moli yuqori bo'lgan aholi xonadonlari va ijtimoiy soha hamda davlat muassasalarida energiya samarador va zamonaviy uskunalar (gaz gorelkali qurilmalar) o'rnatishni rag'batlantirish;

(e) xususiy sektor ishtirokida issiqlik ta'minoti va boshqa sohalarda energoservis xizmatlarini ko'rsatish hamda energiya tejamkorlikni oshirishda yangi bozorni shakllantirish, ixtisoslashgan energiya xizmatlari kompaniyalari bozori (ESKO) mexanizmlari va innovatsion moliya vositalari orqali energiya samaradorlikni oshirish loyihalarini muvofiqlashtiruvchi tashkilot tuzish;

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar sifatida qayta tashkil etiladigan, ustav kapitali "Issiqlik ta'minoti" AJ ustaviga o'tkaziladigan xo'jalik jamiyatlari va korxonalar ro'yxati hamda ularni qayta tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Asosiy chora-tadbirlar hamda ishlab chiqiladigan dasturlar:

ko'p kvartirali uy-joylar, ijtimoiy soha hamda davlat muassasalarini 2025-2030 yillarda markazlashgan issiqlik ta'minoti bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida quyidagilar:

(a) Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalarining yig'ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

(b) Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan istiqbolli investitsiya loyihalarini ro'yxati 3-ilovaga muvofiq. Bunda joriy yilda Nukus va Buxoro shaharlari issiqlik ta'minoti tizimlarida bir vaqtning o'zida ikki turdagi energiya ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi kogeneratsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha loyihalarni boshlash choralari ko'rish;

(v) Xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshiriladigan yangi istiqbolli loyihalar ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Markaziy bank, O'zbekiston mahallalari uyushmasi quyidagi tajriba-sinov loyihalarini boshlash topshirilganligi:

(a) Chinoz va Oltiariq tumanlarida budjet mablag'lari hisobidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (issiqlik nasoslari, quyosh panellari) hamda resurs tejamkor uskunalaridan foydalangan holda turt savatli uy-joylarni issiqlik energiyasi bilan barqaror ta'minlash, ushbu uylarning energiya samaradorligini oshirish uchun ularning issiqlik izolatsiyasi bo'yicha loyihalar;

(b) "Yashil" imtiyozli kreditlar hisobidan har bir viloyatda 100 tadan yakka tartibdagi uy-joylarda energiya yo'qotishlarni kamaytirish uchun ularning tashqi va tom qismining issiqlik izolatsiyasi, energiya tejamkor oyna va eshik romlarini urnatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (quyosh panellari va geliokollektorlar) hamda energiya tejovchi uskunalarini o'rnatish loyihalarini;

(v) Buxoro viloyatidagi ijtimoiy soha muassasalarining qoniqarsiz va ta'mirtalab binolarida energiya yo'qotishlarni kamaytirish uchun ularning tashqi va tom qismini issiqlik saqlovchi materiallar bilan qoplash, energiya tejamkor oyna va eshik romlarini o'rnatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (quyosh panellari va shu kabilar), muqobil issiqlik tizimlari (geliokollektorlar, issiqlik nasoslari, fankoyl tizimi va shu kabilar) hamda energiya tejovchi uskunalarini urnatish loyihalarini;

(g) Buxoro viloyati tajribasi asosida har bir hududda to'rttadan ijtimoiy soha va davlat muassasasi obyektlarida (maktabgacha ta'lim, maktab, tibbiyot, davlat idorasi) energiya samarador loyihalar;

(d) respublikada joylashgan barcha davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini to'liq geliokollektorlar bilan jihozlash loyihalarini. Bunda Vazirlar Mahkamasi ushbu tajriba-sinov loyihalarini bir oy muddatda boshlanishini tashkil etishi;

Energetika vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, "O'zsuvt ta'minoti" AJ bilan birgalikda issiqlik ta'minoti korxonalarining 5-ilovaga muvofiq 2025-yil 1-yanvar holatiga mavjud qarzдорliklarini kechiktirish, hisoblangan penya va jarimalarni hisobdan chiqarish choralari ko'rish;

Tartib va qoidalar:

belgilanishicha, 2025-yil 1-iyundan boshlab:

(a) moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar (budjet, xalqaro moliya institutlari, davlat-xususiy sheriklik, xususiy va boshqa manbalar) qurilishda texnik shartlar olinishi talab kilingan bino-inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilishni loyihalashtirishda ushbu obyektlarning loyiha hujjatlarida binolarning uz ehtiyojlari uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (quyosh panellari va shu kabilar) va

muqobil issiqlik tizimlari (geliokollektorlar, issiqlik nasoslari va shu kabilar) hamda energiya tejovchi uskunalarni majburiy o'rnatish talabi kiritilishi;

(b) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi ushbu obyektlardan foydalanishga ruxsatnoma berishda ko'rsatilgan uskunalarining o'rnatilganini hamda ularning tashqi va tom qismi issiqlik saqlovchi materiallar bilan qoplanishini nazorat qilishi;(v) markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini qurish hamda mavjudlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo'yicha barcha loyihalarda yopiq issiqlik ta'minoti tizimini joriy etish nazarda tutilishi;

(g) Jamiyat tarkibidagi hamda davlat -xususiy sheriklik asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun narxlar (tariflar) Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tartibga solinishi;

(d) ko'p kvartirali uy-joylar va binolarning ichki issiqlik va issiq suv tarqatuvchi tizimlarining qurilishi, inshootlar va tarmoqlarda hisoblagichlarning to'liq o'rnatilishi majburiy hisoblanishi;

(e) issiqlik ta'minoti korxonalari tasarrufidagi qozonxonalarini Jamiyatning roziligisiz bo'sh turgan obyekt sifatida belgilab, elektron savdolarga chiqarish taqiqlanganligi;

(j) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari 6-ildavda ko'rsatilgan vazifalar ijrosiga shaxsan mas'ul etib belgilanganligi hamda ularga markazlashgan va lokal isitish tizimini yo'lga quyishda qozonxonalar va tarmoqlarni qurish va joylashtirish uchun talab etiladigan yer maydonlarini hududiy issiqlik ta'minoti korxonalariga ajratishga ruxsat berilishi;

(z) har yili ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturida issiqlik ta'minoti sohasiga ajratiladigan mablag'larning kamida 10 foizi energiya tejovchi uskunalarini o'rnatishga yo'naltirilishi;

(i) qurilish va modernizatsiya qilish loyihalari amalga oshiriladigan barcha ijtimoiy soha muassasalarida majburiy tartibda doimiy issiq suv bilan ta'minlanadigan tejamkor sanitariya-gigiyena xonalari, qo'l yuvish joylari hamda sport zallarida dush qabul qilish xonalari texnik jihatdan foydalanishga qulay tarzda tashkil qilinishi;

(k) qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar doirasida issiqlik qozonxona quvvatlarini belgilashda hududdagi barcha ko'p kvartirali uy-joylar, ijtimoiy soha muassasalari va ma'muriy binolar hamda sanoat va xususiy sektorlarning to'liq qamrab olinishi nazarda tutilishi;

(l) markazlashgan issiqlik ta'minoti mavjud hududlarda yangi qurilayotgan ko'p kvartirali uy-joylar, ma'muriy binolar, ijtimoiy soha muassasalari, sanoat va tadbirkorlik subyektlari bino va inshootlarining issiqlik tarmoqlariga ulanishi majburiy hisoblanishi;

Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari rejasi 7-ildavga muvofiq tasdiqlanganligi;

Markazlashgan issiqlik ta'minoti sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish ishlarini jadallashtirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tarkibi 8-ildavga muvofiq tasdiqlanganligi va unga quyidagi vazifalar yuklatilganligi:

issiqlik ta'minoti sohasida energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish, qayta tiklanadigan manbalardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish, xizmatlar sifatini oshirish va uzluksizligini ta'minlash, hisob-kitob tizimini tartibga solish va operatsion samaradorlikni oshirish orqali korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida issiqlik energiyasini ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha samarali tizimni joriy etish, tizimlarda yo'qotishlarni kamaytirish choralari ko'rish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

(b) binolarda energiya yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan energiya samaradorlik dastur va loyihalari amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, energiya samarador binolarni qurish bo'yicha qoida va tartiblarni ishlab chiqish, doimiy takomillashtirish hamda ularga rioya qilinishini nazorat qilish;

(v) sohada jozibador investitsiya muhitini yaratish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy qilish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishlarini belgilash;

(g) qaror bilan ko'zda tutilgan dastur va loyihalarning belgilangan muddatlarda sifatli bajarilishini nazorat qilish, qaror ijrosini muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 9-ildavga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (Sh.Xudoyberdiyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), "Namangan suv ta'minoti" AJ Mingbuloq filiali (M.Tolipova), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), Tibbiyot borlashmasi (O.Qo'ldoshev), Madaniyat bo'limi (X.Yigitaliyev) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son qarori talablari asosida ish tashkil etsinlar.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberdiyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov